



XALQ DEPUTATLARI SIRDARYO VILOYATI KENGASHI Q A R O R I

100120, Guliston sh., Islom Karimov k., 60-uy, tel: (67)225-33-51, 225-06-78, e-mail: sirdaryo@exat.uz

2022 - yil 29 - mart

VI-33-32-9-0-K/22

Sirdaryo viloyati hokimligi

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 23-moddasi, "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8-, 10-, 11- va 12-moddalariga muvofiq, shuningdek, fuqarolar yig'inlari raislarining vakolat muddati 2022-yilning may oyida tugashi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 16-martdagi KQ-320-IV-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi sessiyasi **qaror qiladi:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 15-martdagi "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi KQ-320-IV-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ning navbatdagi saylovi 2022-yilning may oyida o'tkazilsin.

2. Navbatdagi saylovda 236 nafar fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylanishi rejalashtirilayotganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022-yil may oyida fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tadbirlar rejasi *1-ilovaga* muvofiq;

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi Sirdaryo viloyati komissiyasi (bundan buyon – viloyat komissiyasi) tarkibi *2-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin;

Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi bo'yicha saylov byulleteni namunasi 3-*ilovaga* muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari:

bir kun muddatda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalarini (bundan buyon - tuman va shahar komissiyalari) tuzsin. Ushbu masala bo'yicha qabul qilingan qarorlar haqidagi axborotni 2022-yilning 25-martiga qadar viloyat Kengashining komissiyasiga taqdim etsin;

har bir deputatga o'z saylov okrugida fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishni tashkil etishda faol qatnashish tavsiya etilsin.

5. Viloyat komissiyasi a'zolari joylarda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalariga amaliy yordam ko'rsatsin.

6. Tuman va shahar hokimliklari fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish hamda o'tkazishda fuqarolar yig'inlariga ko'maklashish, zarurat bo'lganda ularni binolar, transport va aloqa vositalari bilan ta'minlash choralarini ko'rsin.

7. Viloyat teleradiokompaniyasi (Z.Darxonov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (A.Esonov)ga fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish jarayonini keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (Sh.Bo'ronov) fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash choralarini ko'rsin.

9. Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari tuman va shahar komissiyalari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etsin.

10. Viloyat komissiyasi fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi yakunlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirsin hamda 2022-yil 10-iyunga qadar Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi respublika komissiyasiga axborot bersin.

**Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyati Kengashi raisi**



G'.Mirzayev

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2022 yil 29 martdagi
VI-33-32-9-0-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga
ko‘maklashuvchi komissiyasi
TARKIBI**

Komissiya raisi		
1.	Tursunmurodov Rustambek Permatovich	- Kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat Kengashi raisi
Komissiya raisining o‘rinbosarlari		
2.	Nosirov Otabek O‘rolovich	- Viloyat hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari
3.	Mamadaminov O‘lmasjon Yarmaxamatovich	- Viloyat Mahalla va nuroniylarni qo‘llab- quvvatlash boshqarmasi boshlig‘i
Komissiya a‘zolari		
4.	Muminov Irkin Akmalovich	- Viloyat hokimining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo‘yicha o‘rinbosari
5.	Tojiboyeva Nargiza Keldibekovna	- Viloyat hokimi o‘rinbosari – Oila va xotin- qizlar qo‘mitasi raisi
6.	Abdullayeva Dilshunos Adxamovna	- Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi, “Yuksalish” umummilliy harakatining Sirdaryo viloyatidagi hududiy bo‘linmasi rahbari
7.	Tagayev Bekzod Anvarovich	- Yoshlar ishlari Agentligi viloyat bo‘limi rahbari
8.	Sattarov Saloxiddin Ulugbekovich	- Viloyat Adliya boshqarmasi boshlig‘i
9.	Donaboyev Otabek Mamatkulovich	- Viloyat Xalq ta‘limi boshqarmasi boshlig‘i
10.	Axmedjanova Pokiza Shavkatovna	- Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashi huzuridagi Axborot siyosati va mahalliy davlat organlarida ochiqlikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi

11.	Ismoilov Muhammad Rahmonqulovich	-	“Yangi Sirdaryo” va “Новая Сырдарья” gazetalari tahririyati bosh muharriri
12.	Darxonov Zafar Kobilovich	-	Viloyat teleradiokompaniyasi direktori
13.	Abdiyev O‘tbosar Rustamovich	-	Viloyat Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari
14.	Xaitov Murod Sherbek o‘g‘li	-	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Sirdaryo viloyati bo‘limi rahbari
15.	Xaitboyev Komiljon Botirovich	-	Fuqarolarni o‘zini o‘zi boshqarish organlari xodimlari malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kursi direktori
16.	Bayzaqov Adxam Abdullayevich	-	Viloyat hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari
17.	Ikmatov Alisher Amirbekovich	-	Viloyat Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi Tashkiliy-nazorat, tahlil va murojaatlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, komissiya mas’ul kotibi

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ularning o‘rniga yangidan tayinlangan yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyat Kengashining
2022 yil 29 martdagi
VI-33-32-9-0-K/22-son qaroriga
2-ilova

**2022-yilning may oyida fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha
TADBIRLAR REJASI**

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijrochi
I. Tayyorgarlik bosqichi (fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy chora-tadbirlar)				
1.	Viloyat komissiyasi yig'ilishini o'tkazish, komissiya a'zolarini hududlarga birlashtirish hamda ularning vazifalarini belgilash.	1. Komissiya a'zolari yig'ilishini o'tkazish. 2. Komissiya a'zolarini hududlarga birlashtirish. 3. Komissiya a'zolariga vazifalar taqsimotini ishlab chiqish.	2022-yil 25-martgacha	Xalq deputatlari viloyat Kengashi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi
2.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalarini tuzish, komissiyalar yig'ilishini o'tkazish.	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalarini tuzish. 2. Komissiya yig'ilishini o'tkazish va unda quyidagi masalalarni ko'rib chiqish: - komissiya ish rejasini tasdiqlash; - komissiya a'zolarini mahallalarga birlashtirish; - fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini fuqarolar yig'ini yig'ilishi shaklida hamda fuqarolarning vakillari yig'ilishi shaklida o'tkazishni ko'rib chiqish; - saylov yoshiga to'lgan fuqarolar umumiy sonining kamida o'n ikki foizi miqdorida fuqarolar yig'inlari kesimida vakillik normasini belgilash; - Ishchi guruhlarni tuzish bo'yicha fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish jadvalini tasdiqlash; - Ishchi guruhlardan fuqarolar yig'ini raisi lavozimiga nomzodlarga doir hujjatlarni qabul qilib olish muddati va tartibini belgilash kabi boshqa masalalarni ko'rib chiqish.	2022-yil 25-martgacha	Xalq deputatlari viloyat Kengashi, viloyat komissiyasi, Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalari, Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijrochi
3.	O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyatini mahallalar miqyosida tushuntirish.	1. "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonun mazmun-mohiyatini mahallalarda tushuntirish maqsadida alohida reja-jadval ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Huquqshunos va soha mutaxassislari tomonidan reja-jadval asosida mahallalarda O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi to'g'risida"gi Qonuni mazmun-mohiyatini tushuntirish.	2022-yil 25-martgacha Reja-jadval asosida	Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputatlari, Adliya boshqarmasi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi
4.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish hamda o'tkazishga doir tavsiyalar va namunaviy hujjatlar to'plamini tayyorlash.	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish hamda o'tkazishga doir tavsiyalar va namunaviy hujjatlar to'plamini tayyorlash. 2. Tavsiyalar va namunaviy hujjatlar to'plamini loyihasini manfaatdor idora va tashkilotlar bilan kelishish. 3. Kelishilgan tavsiyalar, namunaviy hujjatlar to'plamini chop etish va uni Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiyalar tomonidan fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlariga (keyingi matnlarda – Ishchi guruhlar) yetkazish.	2022-yil 25-martgacha	Viloyat komissiyasi, Adliya boshqarmasi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi
5.	Saylov xarajatlari uchun mablag' ajratish	Fuqarolar yig'inlari raislar (oqsoqollari saylovi bo'yicha xarajatlar smetasini tayyorlash	2022-yil 31-martgacha	Viloyat komissiyasi, Moliya boshqarmasi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi
6.	Hududlar, fuqarolar yig'inlari kesimida saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy ro'yxatini shakllantirish.	1. Hududlar, fuqarolar yig'inlari kesimida saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy soni va ro'yxatini shakllantirish bo'yicha so'rovnomalar yuborish. 2. Saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy soni bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni umumlashtirish.	2022-yil 31-martgacha	Viloyat komissiyasi, Statistika, Ichki ishlar boshqarmalari, tuman va shahar hokimliklari
7.	Fuqarolar vakillarining yig'ilishi shaklida saylov o'tkaziladigan fuqarolar yig'inlarini aniqlab olish.	Fuqarolarning vakillari yig'ilishi shaklida o'tadigan fuqarolar yig'inlari ro'yxatini shakllantirish va sonini aniqlash	2022-yil 31-martgacha	Xalq deputatlari viloyat Kengashi, viloyat komissiyasi, Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalari
8.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi o'tkaziladigan manzil va obyektlarni aniqlashtirish va ro'yxatini shakllantirish.	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi o'tkaziladigan manzil va obyektlarni aniqlashtirish. 2. Tuman (shahar), fuqarolar yig'inlari kesimida saylov o'tkaziladigan manzil va obyektlar ro'yxatini shakllantirish.	2022-yil 31-martgacha	Viloyat komissiyasi, tuman va shahar hokimliklari

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijrochi
9.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish uchun ovoz berish kabinolari, qutilar va kerakli anjomlar bilan ta'minlash.	Tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish uchun zarur miqdorda ovoz berish kabinolari, qutilar va kerakli anjomlar bilan ta'minlash.	2022-yil 31-martgacha	Viloyat, tuman va shahar hokimliklari, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi
10.	Ishchi guruhlarini tuzish yuzasidan fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish.	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalari tomonidan tasdiqlangan jadvalga asosan fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni chaqirish to'g'risida kengash qarorini qabul qilish. 2. Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish va unda quyidagi masalalarni ko'rib chiqish: - Ishchi guruhini tuzish va tarkibini tasdiqlash; - fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalari belgilagan vakillik normasi asosida saylov yoshiga to'lgan fuqarolarning umumiy sonining o'n ikki foizidan kam bo'lmagan miqdorida mavjud ko'chalar va uylarga taqsimlash; - Ishchi guruh a'zolarini hududdagi hovlilar, uylar, ko'chalarga birlashtirish hamda fuqarolar vakillarini saylash bo'yicha umumiy yig'ilishlarini o'tkazish jadvalini tasdiqlash; - fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalari tomonidan belgilangan vakillik normasi asosida hududdagi mavjud hovlilar, uylar, ko'chalarga taqsimlash; - saylov o'tkaziladigan sana, vaqt va joyini belgilash; - fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish masalalari yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish kabi boshqa masalalarni ko'rib chiqish.	2022-yil 31-martgacha	Fuqarolar yig'inlari raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalari, mahalla fuqarolar yig'inlari
11.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi viloyat, tuman va shahar komissiyalari hamda Ishchi guruhlar a'zolari uchun seminar-treninglar o'tkazish.	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi viloyat, tumanlar va shaharlar komissiyalari hamda Ishchi guruhlar ishini tashkil etish, o'quv dasturini tayyorlash va tasdiqlash. 2. Jadvalga muvofiq hududiy seminar-treninglar tashkil etish va o'tkazish.	2022-yil 20-aprelgacha	Viloyat komissiyasi, Xalq deputatlari viloyat kengashi deputatlari, Adliya boshqarmasi, Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijrochi
12.	Saylov byulletenlarining namunalarini va shakllarini tasdiqlash hamda saylov byulletenlarini fuqarolar yig'inlariga yetkazilishini ta'minlash.	1. Tuman va shahar hokimliklari tomonidan saylov byulletenlarini ehtiyojdan kelib chiqib belgilangan tartibda chop etish. 2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalari tomonidan saylov byulletenlarini fuqarolar yig'inlariga yetkazilishini ta'minlash.	Saylovdan kamida besh kun oldin Saylov kunidan kamida 5 kun oldin	Viloyat komissiyasi, tuman va shahar hokimliklari
II. Asosiy bosqich (fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish, saylov yakunlarini chiqarish, OAVda e'lon qilish)				
13.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar ko'rsatish.	1. Ishchi guruhi tomonidan tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar bo'yicha takliflar va ularning hujjatlarini tayyorlash. 2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlarning o'z nomzodi ko'rsatilishiga yozma roziligini ilova qilgan holda ularning hujjatlarini tuman (shahar) hokimi bilan kelishish uchun tegishli komissiyaga taqdim etish. 3. Tuman (shahar) hokimi tomonidan uch kun muddatda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga ko'rsatilgan nomzodlarning hujjatlarini ko'rib chiqib, o'zining asoslantirilgan xulosalarini ishchi guruhlariga topshirish uchun tegishli komissiyaga yuborish. 4. Tegishli komissiya tomonidan bir kun muddatda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga ko'rsatilgan nomzodlar bo'yicha tuman (shahar) hokimining asoslantirilgan xulosalarini ishchi guruhlariga yetkazish.	2022-yil 10-aprelgacha Saylovdan kamida o'n kun oldin	Ishchi guruhlar, Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalari
14.	Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash hamda bu haqda tegishli hududda yashovchi fuqarolarni xabardor qilish. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar haqidagi axborotni fuqarolar yig'ini binosiga va guzarlarga osib qo'yish hamda veb-saytlarga joylashtirish.	1. Tegishli hududda yashovchi fuqarolarga fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish kuni, vaqti va joyi haqida xabar berish. 2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar haqidagi axborotni fuqarolar yig'ini binosiga va guzarlarga osib qo'yish. 3. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazish, fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi) o'tkaziladigan sana, vaqt va joy, fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodlar to'g'risidagi axborotni Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasining rasmiy veb-saytiga joylashtirish.	Saylovdan kamida besh kun oldin	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalari, Ishchi guruhlar

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijrochi
15.	Tuman va shaharlarda fuqarolar yig'inlari kesimida fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish jadvalini tayyorlash.	1. Ishchi guruhlardan fuqarolar yig'inlarida saylov o'tkazish kuni, vaqti, joyi haqidagi ma'lumotlarni olish va umumlashtirish. 2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tumanlar va shaharlar komissiyalari tomonidan fuqarolar yig'inlari kesimida saylovni o'tkazish jadvalini tasdiqlash.	2022-yil 20-aprelgacha 2022-yil 25-aprelgacha	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalari, Ishchi guruhlar
16.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish.	Saylovni yashirin ovoz berish orqali o'tkazish.	Jadvalga muvofiq	Ishchi guruhlar, Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalari
17.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) takroriy saylovini o'tkazish.	Qonunda belgilangan hollarda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) takroriy saylovini o'tkazish.	Saylov o'tkazilgan kundan keyin 1 oy muddatda	Ishchi guruhlar, Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalari
18.	Respublika komissiyasiga axborot taqdim etib borish, shuningdek, fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni umumlashtirish.	1. Saylov jarayoni to'g'risida Respublika komissiyasiga axborot berib borish. 2. Saylovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni umumlashtirish.	Har haftada Saylov yakunlari bo'yicha	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi komissiya
19.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovining yakunlarini chiqarish, ularni umumlashtirish, ko'rib chiqish va keng jamoatchilikka yetkazish uchun Respublika komissiyasiga taqdim etish.	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi viloyat, tumanlar va shaharlar komissiyalari tomonidan saylov yakunlarini chiqarish. 2. Saylov yakunlari to'g'risida axborotni Respublika komissiyasiga taqdim etish.	2022-yil 10-iyungacha	Viloyat komissiyasi, Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashuvchi tuman va shahar komissiyalari
20.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi yakunlarini jamoatchilikka yetkazish.	1. Saylov yakunlari bo'yicha jurnalistlar uchun brifing tashkil etish. 2. Saylov yakunlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish.	2022-yil 10-iyungacha	Viloyat komissiyasi, Ommaviy axborot vositalari

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijrochi
21.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovi o'tadigan obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlash hamda tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish.	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish jadvaliga muvofiq saylov o'tadigan obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash va jamoat tartibini saqlash. 2. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) saylovini o'tkazish jadvaliga muvofiq saylov o'tadigan obyektlarda tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish.	Saylovni o'tkazish jadvaliga muvofiq	Ichki ishlar boshqarmasi, Sog'liqni saqlash boshqarmasi, tuman va shahar hokimliklari
III. Saylovdan keyingi bosqich (fuqarolar yig'ini organlarini shakllantirish, raislarini o'qitish, ularning innovasion va axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarini oshirish)				
22.	Fuqarolar yig'ini kengashini shakllantirish, fuqarolar yig'inlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarni va taftish komissiyasini saylash.	1. Fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ni o'tkazish. 2. Fuqarolar yig'ini kengashini shakllantirish. 3. Yig'in faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha komissiyalarni va taftish komissiyasini saylash.	Saylov natijalari bo'yicha 1 oy davomida	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi, mahalla fuqarolar yig'inlari
23.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining tashkiliy-huquqiy asoslari, raislarning huquq va majburiyatlarini tushuntirish va amaliyotda qo'llash bo'yicha o'quv-seminarlar tashkil etish.	1. Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ni mahalla faoliyatiga oid bilim va malakasini oshirish bo'yicha o'quv-seminarlar dasturini ishlab chiqish. 2. Hududlarda o'quv-seminarlarini alohida reja asosida tashkil etish va o'tkazish.	2022-yil 15-iyulgacha 2022-yil 1-iyulgacha	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi, viloyat hokimligi huzuridagi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini malakasini oshirish o'quv kursi, tuman va shahar hokimliklari
24.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ni bilimlarini oshirish maqsadida seminar-treninglar o'tkazish.	1. Innovatsion rivojlanish boshqarmasi bilan birgalikda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) uchun o'quv dasturini ishlab chiqish. 2. Hududlar kesimida seminar-treninglar o'tkazish jadvalarini tasdiqlash. 3. O'quv mashg'ulotlarini alohida reja asosida tashkil etish va o'tkazish.	2022-yil 30-iyulgacha 2022-yil 20-iyulgacha	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi, viloyat hokimligi huzuridagi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini malakasini oshirish o'quv kursi, tuman va shahar hokimliklari

№	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijrochi
25.	Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ni axborot kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilimlarini oshirish.	1. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vazirligining viloyat boshqarmasi bilan birgalikda fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) uchun o'quv dasturini ishlab chiqish. 2. Hududlar kesimida seminar-treninglar o'tkazish jadvallarini tasdiqlash. 3. O'quv mashg'ulotlarini alohida reja asosida tashkil etish va o'tkazish.	2022-yil 20-iyulgacha 2022-yil 20-avgustgacha	Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash boshqarmasi, Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vazirligining viloyat boshqarmasi, viloyat hokimligi huzuridagi Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarini malakasini oshirish o'quv kursi, tuman va shahar hokimliklari

Xalq deputatlari Sirdaryo
viloyat Kengashining
2022 yil 29 martdagi
VI-33-32-9-0-K/22-son qaroriga
3-ilova

NAMUNA

Sirdaryo viloyati _____ tuman (shahar)idagi “ _____ ” mahalla

fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi bo‘yicha

SAYLOV BYULLETENI

2022-yil ____ may

Rasm uchun joy	Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) lavozimiga nomzodning familiyasi, ismi, otasining ismi va tug‘ilgan yili	O‘zingiz yoqlab ovoz berayotgan nomzodning familiyasi qarshisida joylashgan bo‘sh katakka “+”, “□□□ü” yoxud “x” belgilaridan birini qo‘ying
	GOFUROV SHOIR TURSUNOVICH, 1970-yilda tug‘ilgan	
	MUSAYEV SHUHRAT ZOKIROVICH, 1973-yilda tug‘ilgan	
	SULTONOV TOHIR HAYDAROVICH, 1980-yilda tug‘ilgan	

	ERGASHEV BOTIR YO‘LDOSHEVICH, 1975-yilda tug‘ilgan	
--	---	--

Agar byulletenning o‘ng tomonida joylashgan bittadan ortiq bo‘sh katakka“+”, “ü” yoxud “x” belgilaridan biri qo‘yilgan yoki bitta ham katakka bunday belgi qo‘yilmagan bo‘lsa, saylov byulleteni haqiqiy emas deb topiladi.

Izoh: Har bir byulletenning orqa tomoniga ishchi guruhi rahbari va bir a‘zosi hamda fuqarolar yig‘iniga birlashtirilgan tuman (shahar) ko‘maklashuvchi komissiyasi a‘zosining imzosi qo‘yilib, fuqarolar yig‘inining muhri qo‘yilishi lozim.